



THE ROLE OF MARKETS IN CENTRAL ASIAN TRADE RELATIONS

Ulugbek Khalmuminov

Associate Professor, Department of History, PhD.

Kimyo International University in Tashkent,

E-mail: ula8286@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, Silk Road, market, trade, products, merchant, textiles, markets in trade relations in Central Asia during local, foreign, "zandaniych" (merchant), the medieval period, focusing on various cities in Bukhara, Tavois, Iskhakat, Sharg, Vardona, the Bukhara oasis as examples. The author, Varakhsha, Boykent.

Received: 13.01.24

Accepted: 15.01.25

Published: 17.01.25

Abstract: This article examines the role of market, trade, products, merchant, textiles, markets in trade relations in Central Asia during local, foreign, "zandaniych" (merchant), the medieval period, focusing on various cities in Bukhara, Tavois, Iskhakat, Sharg, Vardona, the Bukhara oasis as examples. The author, relying on the data presented in the works of Narshakhi and Ibn Hawqal, clarifies the extent to which the market system had developed in the region during that time.

O'RTA OSIYO SAVDO-SOTIQ MUNOSABATLARIDA BOZORLARNING O'RNI

Ulug'bek Xalmuminov

"Tarix" kafedrasi dotsent, PhD.

Toshkent Kimyo halqaro universiteti,

E-mail: ula8286@gmail.com

MAQOL A HAQIDA

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, ipak yo'li, bozor, savdo, mahsulot, tijoratchi, to'qimachilik, mahalliy, xorij, "zandaniychi", Buxoro, Tavois, Iskajkat, Sharg', Vardona, Varaxsha, Boykent.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif rivojlangan o'rta asrlar O'rta Osiyoda savdo-sotiq munosabatlarda bozorlarning tutgan o'rni masalasi Buxoro vohasidagi turli shaharlar misolida ko'rsatib berilgan. Muallif Narshaxiy va Ibn Havqal asarlarida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib bu darvda mintaqada bozor tizimi qanchalik rivoj topgani masalasiga oydinlik kiritgan.

РОЛЬ РЫНКОВ В СРЕДНЕАЗИАТСКИХ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Улугбек Халмуминов
Доцент кафедры “История”
Ташкентский
международный
университет Кимё, PhD.
E-mail: ula8286@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Средняя Азия, Шёлковый путь, рынок, торговля, продукция, торговец, текстиль, местный, иностранный, «занданичий» (торговец), Бухара, Тавоис, Искехкат, Шарг, Вардона, Варахша, Бойкент.

Аннотация: В данной статье автор рассматривает вопрос о роли рынков в торгово-экономических отношениях Средней Азии в период развитого средневековья на примере различных городов Бухарского оазиса. Автор, опираясь на данные, приведённые в трудах Наршахи и Ибн Хавкала, вносит ясность в вопрос о степени развития рыночной системы в этом регионе в указанный период.

Kirish. Dunyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bozorlarning alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, O‘rta Osiyo mintaqasi, xususan, mintaqaning qoq markazida o‘rin olgan Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i qismi qadimdan o‘zining geografik joylashuvi, tabiiy shart-sharoiti, iqlimi va hokazo kabi xususiyatlariga ko‘ra o‘ziga xos savdo-sotiqa tizimiga ega hudud sifatida bilingan. Buni mintaqadan o‘tuvchi Buyuk Ipak yo‘lining asosiy tarmoqlari bo‘ylab joylashgan o‘nlab qadimiy shaharlar – Urganch, Termiz, Kesh va Naxshab, Buxoro, Samarkand, Dizak (Jizzax), Xo‘jand, Choch, Axsikat, Quva, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, O‘zgand kabi Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i va unga yaqin joylashgan tarixiy shaharlarning har biri qadim va ilk o‘rta asrlarda yirik-yirik bozorlarga ega bo‘lgani va bu holat o‘rta asrlarda ham davom etgani tasdiqlab turibdi [7. B. 122 - 155]. O‘rta Osiyoning bunday shahalari qatoriga har ikkala daryo havzalari yaqinidagi Marv, Yassi (Turkiston), Isfijob (Sayram), Taroz kabi tarixiy shahalarni ham qo‘sish mumkin [10: B. 272-273].

Kishilik tarixida katta o‘rin tutadigan savdo-sotiqa munosabatlari boshlang‘ichda ancha ibridoib bo‘lib, kundalik maishiy ehtiyojlar dastlab natura shaklida o‘zaro tovar almashinuvni asosida olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik bunday aloqalarda tovar-pul munosabatlarining yo‘lga qo‘yilishi dunyoning ko‘plab hududlarida yirik savdo-sotiqa markazlari – bozorlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Miloddan olding so‘nggi mingyillikning o‘rtalariga kelib O‘rta dengiz qirg‘oqlari, Eron, Hind diyori, Xitoy kabi dunyoning aholisiz zich joylashib, o‘ziga xos ilk sivilizatsiyalar yaratgan hududlarida o‘zaro oldi-berdilarda tovar-pul amaliyoti qo‘yilgani ma’lum. Savdo-sotiqa tanga-pullarni qo‘llash amaliyoti O‘rta Osiyoning qadimiy madaniyat o‘choqlari bo‘lmish Xorazm, Marg‘iyona, Baqtriya, Sug‘d hududlarida ham yuqorida keltirilgan sivilizatsiyalar bilan deyarli bir vaqtga to‘g‘ri keladi.

Aslida butun dunyoda o‘zaro iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarda tanga-pul tizimi yo‘lga qo‘yilishidan ancha oldin ham bozor tizimi mavjud bo‘lgan bo‘lsa ham, o‘zaro oldi-berdi aloqalarida tanga-pullarning muomalada bo‘la boshlashi kishilik jamiyatining yanada rivojlanishiga olib keldi. Chunki ham ichki savdo aloqalarida, ham uzoq o‘lkalardan kelib, o‘z tovarlarini mahalliy aholiga taqdim qiluvchi tijoratchilar bilan munosabatlarda tovar-pul munosabatlari misli ko‘rilmagan darajada yengillik yaratar edi. Ayniqsa, bu holat aholisining katta bir qismini ko‘chmanchi chorvador aholi, sezilarli bir qismini esa o‘troq dehqon aholi tashkil etgan O‘rta Osiyo mintaqasida o‘ziga xos o‘rin tutdi. Buni qadimgi davr va o‘rta asrlarga tegishli xitoy, yunon, arman, sug‘diy, baqtriy, qadimgi turk, pahlaviy, hind, tibet va hokazo tillardagi yozma manbalardagi ma’lumotlar tasdiqlab turibdi. Ayniqsa, rivojlangan o‘rta asrlarda mintaqaga tashrif buyurgan o‘nlab arab-fors sayyoohlari asarlari, arab, fors tillarida yozilgan tarixiy asarlarda o‘rin olgan bozor tizimi haqidagi ma’lumotlar o‘zining izchilligi va keng ko‘lamliligi bilan alohida ahamiyatga ega. Arab-fors geograflari yozib qoldirgan ma’lumotlarga tayanib O‘rta Osiyo shaharlaridagi asosiy tijorat markazlari - bozorlar va ularning turlari, joylashuv o‘rni, sotiladigan mol-ashyolarning qiymati va xilma-xilliklari kabi masalalarda muayyan tasavvurlarga ega bo‘lamiz. Bozorlar haqidagi ma’lumotlar o‘nlab arab-fors sayyooh va geograflari asarlarida o‘rin olgan bo‘lib, biz quyida bu davrning tipik vakillari bo‘lmish geograflar Istaxriy (IX – X asrlar), Ibn Havqal (X asr) va tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy (X asr) asarlarida keltirilgan Buxoro vohasi va uning atroflaridagi savdo-sotiq markazlari – yirik bozorlarga oid ma’lumotlarni tahlil qilish bilan cheklanamiz.

Tadqiqotning asosiy natijalari. Qadimgi davr va rivojlangan o‘rta asrlar tarixini yoritishda birlamchi tarixiy manbalardan bo‘lmish Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asarida nafaqat Buxoro va uning yaqin atroflaridagi savdo-sotiq markazlari, balki mintaqaning yirik iqtisodiy markazlari bo‘lmish o‘nlab shaharlardagi bozorlarga doir ma’lumotlar keltirilgan. Narshaxiy Buxoro vohasiga yaqin joylashgan shaharlardan biri va undagi savdo-sotiq markazlari haqida quyidagicha yozadi: “Tavois. Bu Buxoro viloyatlaridan bo‘lib, (asl) nomi Arquddir. Unda boy va zebu ziynatni sevuvchi kishilar yashaganlar ... qadimgi vaqtarda (har) kuz faslida u joyda o‘n kun bozor bo‘lar edi. U bozorda shunday rasm bor ediki, (boshqa bozorlardan surilib qolgan) har qanday nuqsonli qullar, chorva mollari va boshqa aybli qoldiq narsalar bo‘lsa hammasi bu bozorda sotila berar va ularni qaytarib berishning hech iloj-imkonи bo‘lmas edi; na sotuvchi va na oluvchining hech bir sharti qabul qilinmas edi. Har yili (shu o‘n kunda) bu bozorga masalan, Farg‘ona, Choch va boshqa joylardan kelgan savdogarlar va turli hojatmandlardan o‘n mingdan ortiq kishi hozir bo‘lishar va ko‘p manfaat topib qaytar edilar. Shu sababli bu qishloqning aholisi boy kishilar edilar va boyliklari dehqonchilik tufayli emas edi. Tavois Samarqandga boriladigan katta yo‘l ustida bo‘lib, undan Buxorogacha yetti farsangdir” [1. B. 9-10]. Ushbu ma’lumotdan anglashiladiki, qadimgi vaqtarda, ya’ni islomdan oldingi davrlarda Tavois shahrida yilda bir marta 10 kun davomida savdo-sotiq ishlari amalga oshirilib, bu bozorga mintaqaning Farg‘ona, Choch va boshqa hududlaridan ko‘plab savdogarlar yetib

kelishgan. Qizig‘i shundaki, ham mahalliy aholining, ham boshqa hududlar savdogarlarining sotilmay qolgan tovarlari Tavoisdagi bozorga olib-kelinib, qiymati va sifati ham turlicha bo‘lishiga qaramay o‘z xaridorini topgan. Bu bozorni hozirgi kunda ham o‘tkazib turiladigan vaqtinchalik bozorlar – yarmarkalarning ilk ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan deyish mumkin. “Tarixi Buxoro” asarining muallifi Tavois bozorida 10 mingdan ortiq sotuvchi va oluvchilarning qatnashishlariga urg‘u bergen bo‘lib, bu esa o‘sha davrda bozorlarning ko‘lamni qanchalik keng bo‘lganini ko‘rsatib turibdi.

Ibn Havqal ham Tavoisdagi bozorlarga alohida to‘xtalgan bo‘lib, muallif keltirgan quyidagi ma’lumotlar diqqatni o‘ziga tortadi: “Tavovisga kelsak, u yerda [oddiy] bozor va [undan tashqari] katta [maxsus] bozor [kuni] bo‘lib, Xuroson yerining [turli] taraflaridan yilning malum vaqtida odamlar keladi. U yerdan al-‘Iroqqa paxtadan [tikilgan] kiyimlar ko‘p miqdorda olib ketiladi” [3. B. 48]. Istashriy Tavovisdagagi bozorlar haqida shunday yozadi: “Tavovis bozori bor shahar. Yilning bir vaqtida atrofi va Movarounnahrdan son-sanoqsiz odamlar keladi” [5. B. 154]. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, arab va fors mualliflari Tavois shahrida bo‘lib o‘tadigan bozor haqida yozar ekan, bu yerga ko‘plab o‘lkalardan tijoratchilar kelib savdo qilishiga urg‘u bergenliklari ko‘zga tashlanadi. Narshaxiy yanada aniqroq qilib Farg‘ona va Choch savdogarlar haqida yozsa, Ibn Havqal “Xuroson yerining turli tarafidan keladigan” tijoratchilar haqida so‘z yuritadi. Arablar “Xuroson yeri” deb O‘rta Osiyoning janubi-g‘arbiy va markaziy hududlarini, ya’ni arab noiblar o‘tiradigan Marv va unga yaqin hududlarni – Movarounnahrni ko‘zda tutganlar.

Hozirgi kunda Navoiy viloyatiga qarashli Qiziltepa tumanida joylashgan Tavois qishlog‘i Narshaxiy va ko‘plab o‘rta asr mualliflari asarlarida tilga olingan Arqud – Tavois shahri atroflariga to‘g‘ri kelib, o‘z geografik joylashuviga ko‘ra Buxoro – Karmana – Kattaqo‘rg‘on - Samarqand yo‘nalishlarini o‘zaro bog‘lab turadi [3. 36-38].

“Tarixi Buxoro”da Buxoro shahri va uning yon-atrofidagi aholi maskanlari haqida batafsil ma’lumotlar berar ekan, shahar yaqinidagi Iskajkat bozori to‘g‘risida quyidagicha yozadi: “Iskajkat. U bir katta kuhandizga ega. Uning aholisi boy kishilar bo‘lganlar; boyliklari dehqonchilikdan bo‘lмаган, chunki у qishloqning yerlari xarob bo‘lib, yaxshi yerlari ming juftga yetmagan. Uning hamma aholisi savdogarchilik bilan shug‘ullangan. U joyda ko‘p bo‘z (to‘qib) chiqarilar edi. Har payshanba kuni u yerda bozor bo‘ldi” [1. B. 10]. Ushbu ma’lumotlardan anglashilicha, bu yer aholisining tirikchiligi asosan tijorat asosida amalga oshirilgan. Iskajkat yerlari dehqonchilikka yaroqsiz bo‘lgani sababli aholi bo‘z to‘qish va uning sotish orqali kun kechirishga harakat qilishgan. Asarda “aholining boy kishilardan iboratligi”ga urg‘u berilishidan kelib chiqilsa o‘sha vaqtarda ham tijorat bilan shug‘ullanish ancha foydali kasb bo‘lganligi, shu bilan birga, hunarmandchilik eng qadrlangan kasblardan biri sifatida bilingani ma’lum bo‘ladi. Iskajkat nisbatan kichikroq aholi maskani bo‘lishiga qaramay, bu yerda haftada bir marotaba bozor bo‘lib o‘tishi diqqatga sazovordir. O‘sha kezlarda haftaning ma’lum bir kunida faoliyat yuritadigan bozorlarga ega aholi maskanlarining bo‘lishi – bu o‘sha hududning muhim tijorat markazlaridan biri sifatida mintaqqa iqtisodiy hayotida

muhim o‘rin tutganidan darak beradi.

Buxoro bilan bog‘liq ravishda Narshaxiy keltirib o‘tgan muhim savdo-sotiq markazlaridan yana biri Sharg‘ qishlog‘idir. Muallif bu haqda quyidagicha ma’lumotlar keltirgan: “Sharg‘ qishlog‘i. Iskajkat ro‘parasidadir, ikkovining orasida katta daryodan boshqa hech bir bog‘ va bo‘sh yerlar yo‘q ... (bu joy aholisining) qadimgi vaqtarda bir bozori bo‘lib, har yili qish o‘rtasida o‘n kun davom etar, (kishilar) uzoq viloyatlardan kelib savdo qilar edilar. Ko‘proq u joydan shinni bilan tayyorlangan mag‘izli holva chiqar edi, yana u joydan ko‘proq chiqadigan narsa qintoriy va cho‘p (yog‘och)lar, tuzlangan baliq, yangi baliq, qo‘y va qorako‘l terilaridan tikilgan po‘stinlardan iborat edi; bu yerda ko‘p savdo bo‘lar edi. Ammo bugun bizning davrimizda har juma kuni bozor bo‘lib, shahar va qishloqlardan savdogarlar u joyga boradilar. U qishloqdan chiqadigan va bu kunlarda savdogarlar boshqa viloyatlarga olib boradigan narsa mis va bo‘zdir” [1. B. 11]. Ushbu ma’lumot o‘z mazmuniga ko‘ra O‘rta Osiyo bozorlari haqida kengroq tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi. O‘z bozoriga ega Iskajkatdan uzoq bo‘lmagan Sharg‘da Tavoisdagi kabi yilning ma’lum bir fasli – qish mavsumida 10 kun davom etadigan bozorga mintaqaning turli hududlaridan savdogarlar tashrif buyurganlar. Tavoisdagidan farqli holda bu yerda istalgan turdagи buyumlar, qolgan-qutgan tovarlar emas, ko‘proq qandolat mahsulotlari – shinnidan tayyorlangan holva turlari, qurilish mollari – yog‘ochlar, oziq-ovqat mahsulotlari – qoq baliq, tirik baliqlar, kiyim-kechaklar – po‘stinlar savdosi amalga oshirilgan. Bundan ko‘rinadiki, bundan ming yil oldin ham mintaqada muayyan tovarlar sotilishiga mo‘ljallangan savdo-sotiq markazlari mavjud bo‘lib, bu holat bozor bo‘lib o‘tadigan hudud aholisining qaysi kasbga ixtisoslashgani bilan bog‘liq edi. Asar muallifi Sharg‘ bozorining umumiyy xususiyatini shu yo‘sinda ochiqlar ekan, keyinchalik bu yerda ham haftaning juma kunlari faoliyat yurtishini yozib, sharg‘liklarning boshqa viloyatlarga olib boriladigan mahsulotlari orasida “mis va bo‘z”ga alohida urg‘u berib o‘tadi. Bu esa sharg‘liklar mohir hunarmandlar bo‘lganidan darak beradi. Qizig‘i shundaki, Buxoro shahri atrofida o‘zaro yaqin joylashgan aholi maskanlari – Iskajkat va Sharg‘da yirik bozorlarning mavjud bo‘lgani o‘sha kezlarda Buxoro mintaqaning yirik hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlaridan biri bo‘lganini ko‘rsatib turibdi.

Arab-fors geograflari asarlari va mintaqqa tarixiga bag‘ishlangan tarixiy kitoblar va numizmatik materiallar orqali rivojlangan o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo aholisi turmush tarzi, iqtisodiy-maishiy hayotida hunarmanchilik va savdo-sotiq katta o‘rin tutgani, bu masalada ayniqsa qanday tovarlarga ehtiyoj yuqori bo‘lgani kabi masalalarni yoritadigan ma’lumotlarga ham ega bo‘lish mumkin [8. B. 5, 15, 35; 6. B. 21-31]. Quyida “Tarixi Buxoro”da keltirilgan ma’lumot bunga yaqqol misol bo‘la oladi: “Zandana. Bu qishloq katta qal‘aga, ko‘pgina bozor joylarga masjidi jomega ega. Bu yerda har juma kuni namoz o‘qiydilar va bozor qiladilar. Bu qishloqda (to‘qib) chiqariladigan narsa – bo‘zni «zandaniyichi», ya’ni «Zandana qishlog‘idan chiqadigan» deb ataydilar. Bu yerda u ham yaxshi, ham ko‘p bo‘ladi. Shu xil bo‘zdan Buxoroning ko‘p qishloqlarida to‘qiydilar va buni ham «zandaniyichi» deb ataydilar. Chunki u avvalo shu qishloqda to‘qib chiqarilgan. Shu xil bo‘zdan

Iraq, Fors, Kerman, Hindiston va boshqalar kabi hamma viloyatlarga olib boradilar. Barcha ulug'lar va podshohlar undan kiyim qiladilar va ipakli kiyimlik bahosida sotib oladilar" [1. B. 11].

Ilk va rivojlangan o'rta asrlarda O'rta Osiyoda ishlab chiqariladigan turli tovarlar orasida kiyim-kechaklar, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar alohida o'rin tutib, bu turdag'i mahsulotlar xorijda nihoyatda qadrlangan. Ayniqsa, "zandaniychi" deb ataladigan bo'z va bo'zdan tayyorlangan kiyim-kechaklar Zandana qishlog'inining olis hududlarda ham dovruq qozonishiga olib kelgan [9. 101-112]. O'sha kezlarda o'z to'qimachilik ashyolari, turli xil sifatli kiyim-kechaklari bilan mashhur bo'lган Hindiston kabi hunarmandlar yashaydigan o'lkaga Zandanada to'qilgan bo'zlarning olib ketilgani diqqatga sazovordir. Ahamiyatlisi, bu turdag'i matolar birgina Zandana qishlog'ida emas, Buxoro vohasi va unga qo'shni hududlardagi ko'plab aholi maskanlarida to'qila boshlagan. O'sha kezlarda muslimon Sharqining asosiy siyosiy-iqtisodiy va madaniy markazlaridan hisoblangan Iroq, Fors, Kerman (Janubiy Eron) o'lkalariga olib borilgan "zandaniychi" bo'z mahsulotlaridan hattoki boshqaruvchi oliy toifa vakillari uchun kiyimlar tayyorlanishiga urg'u berilishi esa O'rta Osiyo hunarmandchiligining qay darajada yuksak rivojlanganidan darak beradi.

Narshaxiy va Ibn Havqal Buxoro va uning atrofidagi bozorlar to'g'risida yozar ekan, bozorlarning shaharning aynan qaysi qismida – shahar markazidami yoki tegrasida joylashganiga ham alohida e'tibor qaratadilar. Jumladan, "Tarixi Buxoro"da Buxoro vohasidagi qadimiy hukmdorlik markazlaridan biri haqida quyidagicha ma'lumotlar keltirilgan: "Vardona. Bu katta bir qishloq bo'lib, kuhandizga, katta va mustahkam hisorga ega. U qadim vaqtlardan podshohlarning turarjoylari bo'lган, (lekin) hozirda unda podshoh o'tiradigan qarorgoh yo'q. Vardona Buxoro shahridan qadimroq (barpo bo'lган) uni Shohpur Malik bino qilgan. U Turkistonning chegarasida joylashgan. U joyda har haftada bir kun bozor bo'lib savdogarlar ko'p kelar edilar. U yerdan chiqadigan narsa ham yaxshi xil «zandaniychi» bo'lган" [1. B. 11]. Ushbu ma'lumotdan anglashilicha, Vardona shahri Buxoro shahridan ham qadimiy bo'lib, bu yer vohaning muhim siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri bo'lган. Bu yerning "Turkistonning chegarasida joylashgani" haqidagi satrlar esa alohida tekshirib chiqishli talab etadi. Chunki Turkiston deganda O'rta Osiyoning ko'plab hududlari tushunilgan bo'lib, ilk o'rta asrlarda ancha keng ma'noda qo'llanilgan ushbu atama rivojlangan o'rta asrlarga kelib birmuncha toraygan va uning o'rniga arabcha atamalar ko'proq qo'llanila boshlagan edi [2. B. 40-43].

"Tarixi Buxoro"da Vardonada ham haftada bir marotaba o'tkaziladigan bozor va bu yerga keladigan savdogarlar haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan bo'lib, "savdogarlarning ko'pligi"ga urg'u berilishi diqqatni o'ziga tortadi. Qizig'i shundaki, Vardona ham "zandaniychi" matolar to'qiladigan joylardan biri bo'lган.

Narshaxiy keltirgan shunga o'xhash ma'lumotlar Varaxsha uchun ham tegishlidir: "Varaxsha. Bir nusxa (kitob) da Varaxsha o'rnida Rajfandun deb yozganlar. Katta qishloqlar jumlasidan bo'lib, Buxoro singari edi; u Buxoro shahridan qadimiyroqdir, u podshohlar turadigan joy

bo‘lib, mustahkam hisorga ega bo‘lgan, chunki padshohlar (u hisorni) bir necha marta mustahkamlaganlar. ... Bu qishloqda har o‘n besh kunda bir kun bozor bo‘ladi, yilning oxirida esa yigirma kun bozor qilib, yigirma birinchi kuni navro‘z — yangi yil bayramini o‘tkazadilar. Buni «Navro‘zi kishovarzon» - «Dehqonlar navro‘zi» deydilar” [1. B. 12]. Bundan anglashiladiki, Varaxshada yilning turli mavsumlarida bozorlar tashkil etilgan bo‘lib, har 15 kunda bir kun o‘tkaziladigan bozorlar, yilning so‘nggida 20 kun davomida har kuni o‘tkaziladigan bozorlar an’anasi mavjud bo‘lgan.

Buxoro vohasining eng yirik va mashhur savdo-sotiq markazi Boykent yoki Poykent deb ataladigan mavzeda joylashgani rivojlangan o‘rta asrlar manbalarida ko‘p bora tilga olinadi. Jumladan, Narshaxiy bu haqda shunday yozadi: “Baykand. Buni shaharlar jumlasidan deb hisoblaydilar. ... Baykand aholisi hammasi savdogar bo‘lgan. Ular Xitoy bilan va dengiz (orgali boriladigan) mamlakatlar bilan savdo qilganlar va juda boy bo‘lganlar” [1. B. 12]. Boykend haqida bu va bunga o‘xhash ma’lumotlar ko‘plab asarlarda keltirilar ekan, shahar aholisining “hammasi tijorat bilan shug‘ullanishi”ga alohida urg‘u berishi diqqatni o‘ziga tortadi. Aslida Buxoro vohasida bunday aholi maskanlari ancha ko‘p bo‘lgan, biroq boykendliklar ham iqtisodiy ahvoli yuqori aholi maskani bo‘lishidan tashqari, bu yerliklar Xitoydek o‘z davrining yirik savdo-sotiq markazi bilan tijoriy aloqalarni amalga oshirgani muhim tarixiy voqelikdir. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, Narshaxiy “Ular Xitoy bilan va dengiz (orgali boriladigan) mamlakatlar bilan savdo qilganlar va juda boy bo‘lganlar” deb yozar ekan, qaysi dengiz yo‘lini ko‘zda tutganini aniqlash uchun maxsus izlanishlar olib borish kerak bo‘ladi.

Qisqasi, O‘rta Osiyo bozorlari tarixini alohida sinchiklab o‘rganish orgali mintaqalari iqtisodiy va madaniy tarixi bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni yoritish imkoniyati mavjud. Bunga birgina Buxoro vohasi misolida ayrim o‘rta asr mualliflari ma’lumotlariga tayanganimizda guvoh bo‘lib turibmiz. Buxoro vohasi bozorlari va unda sotiladigan yetakchi mahsulotlar, bozorlardan keladigan foyda va hokazolar haqida birmuncha aniq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Ibn Havqal qayd etgan quyidagi ma’lumotni keltirish bilan cheklanamiz: “Devorning ichida va tashqarisida xar oyning ma’lum [bir] kunida [o‘tkaziladigan] muntazam bozorlari bo‘lib, ularda uy hayvonlari, kiyimlar, qullar, bronza va misdan yasalgan turli xil buyumlar, idishlar va odamlar ko‘p [ishlatadigan] uy anjomlarining oldi-sotdisi amalga oshirilganidan [katta] daromad keladi. Buxoro va uning atroflaridan al-‘Iroqqa va boshqa yerlarga al-buxoriyya nomli kiyimliklar, karbos [matolari], tarozu toshlari, yug‘on simlar, yigirligan to‘qima iplar olib ketiladi, arablar uni yoqtiradilar. Shuningdek gilamlar, ko‘rpalar uchun g‘oyat chiroyli junli matolar, kursilar va mehrob [yoni]ga solinadigan joynamozlar [olib ketiladi]” [3. B. 50].

Xulosa. O‘rta Osiyoda asosiy savdo-sotiq markazi vazifasini qadimgi davrlarda bo‘lgani kabi o‘rta asrlarda ham bozorlar bajargan bo‘lib, mintaqaning yirik aholi maskanlari – shahar, qasaba va qishloqlarda yilning turli mavsumlarida, oyning ma’lum kunlarida yoki haftaning muayyan bir kunida

bozorlar tashkil etilib turilgan. Bu masalada Buxoro vohasi va unga qo'shni hududlardagi o'nlab shahar va qishloqlardagi bozorlar haqidagi ma'lumotlar asqotadi. Hududlarda yilning muayyan bir faslida o'tkazilgan 10 kunlik vaqtinchalik bozorlar, doimiy ravishda haftada bir marotaba faoliyat yuritilgan bozorlar buning yaqqol misolidir.

Rivojlangan o'rta asrlar bozorlari ko'pincha qadimda va ilk o'rta asrlarda mavjud bo'lgan bozorlar o'rnida shakllangan bo'lib, bozor joylashgan shahar va qishloqlarning joylashuv o'rni, asosiy savdo yo'llariga qanchalik yaqin joylashgani, Ipak yo'li savdo tarmoqlari bo'y lab joylashuvi va hokazolar bozorlar faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatgan.

IQTIBOSLAR / ЧОСКИ / REFERENCES

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. Fors tilidan A. Rasulev tarjimasi Mas'ul muharrir A. O_rinboyev. Toshkent, 1961.
2. Boboyorov G_. Ilk o_rta asrlarda Turkiston atamasi // O_zbek xalqining kelib chiqishi, ilmiy-metodologik yoyondashuvlar, etnogenetika va etnik tarixi mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. Toshkent, 2004. B. 40-43.
3. Daminov A. Xo_ja Ahrori Valiyning ziroatchilikka oid mulklari to_g_risida ba'zi ma'lumotlar // Journal of Innovations in Social Sciences - www.sciencebox.uz. Volume: 03 Issue: 01 / Jan – 2023. B. 36-38.
4. Ibn Havqal. Kitob surat al-ard. Mavarunnahr/Ibn Havqal: arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S. Kamoliddin. Mas'ul muharrir F. S. Hasanov. Toshkent: —O_zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011.
5. Istarriy. Kitab al-masalik val-mamalik (Yo_llar va o_lkalar kitobi). Tadqiqot, arab tilidan tarjima, izoh va ko_rsatkichlar muallifi R.T. Xudayberganov. Toshkent: Fan, 2019.
6. Мусакаева А.А. О денежном обращении Бухарского Согда (III в до н.э. – VIII вв. н.э.) // ОНУБ №9-11, 1997. С. 21-31.
7. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М.: Наука, 1970.
8. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. М.: Наука, 1981.
9. Сухарева О. А. Уникальные образцы среднеазиатской одежды XVII в. // Традиционная культура народов Передней и Средней Азии. Сб. Музея и этнографии XXVI. Ленинград, 1970. С. 101-112.
10. Al-Muqaddasi. Descriptio imperii moslemici. Deited by M. J. Goeje. Leiden: Brill, 1877. Reprint Brill, 1967.
11. ERALOV, A. (2024). BUXORO VILOYATIDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. News of UzMU journal, 1(1.2), 8-11.